

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.05.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

ALLAYAROV XAMZA NAZARALIYEVICH

**TERMIZ TUMANI TUPROQLARINING HOZIRGI HOLATI VA
ULARNING MIKROBIOLOGIK INDIKATSIYASI**

03.00.13-Tuproqshunoslik

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona-2025

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on biological
sciences**

Allayarov Xamza Nazaraliyevich

Termiz tumani tuproqlarining hozirgi holati va ularning mikrobiologik
indikatsiyasi 3

Аллаяров Хамза Назаралиевич

Современное состояние почв Термезского района и их микробиологическая
индикация.....21

Allayarov Khamza Nazaraliyevich

The current state of soils in the Termez district and their microbiological
indication.....40

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....44

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.05.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

ALLAYAROV XAMZA NAZARALIYEVICH

**TERMIZ TUMANI TUPROQLARINING HOZIRGI HOLATI VA
ULARNING MIKROBIOLOGIK INDIKATSIYASI**

03.00.13-Tuproqshunoslik

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona-2025

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/B1287 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Qodirova Dilrabo Abdukarimovna biologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Parpiyev G'ofurjon Toxirovich biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim Umarov Otabek Rafoilovich biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi (PhD).03/30.12.2019.B.05.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «28» 06 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-02, faks: (+99873) 244-44-93, e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiyasi bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (531 - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «14» 06 kuni tarqatildi.

(2025-yil «14» 06 dagi № 3 raqamli reestr bayonnomasi).




G.Yuldashev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d.,
professor


U.B.Mirzayev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
b.f.n., dotsent


A.T.Turdaliyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi).

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida yerlardan jadal foydalanilishi tufayli dunyo bo‘yicha degradatsiyaga uchragan yerlar maydoni ortib bormoqda. “FAO tomonidan yaratilgan tuproqlarning global xaritasi ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab 833 million gektardan ortiq tuproqlar allaqachon turli darajada sho‘rlangan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, ekin maydonlarining 73 foizdan ortig‘i sho‘rlangan va bu butun dunyo bo‘ylab oziq-ovqat xavfsizligi uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda”¹. Tuproqlar sho‘rlanishidan eng ko‘p zarar ko‘rgan hududlar Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Janubiy Amerika, Shimoliy Afrika davlatlari yerlariga to‘g‘ri keladi. Shu sababli, sho‘rlangan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish, tuproq qoplamini degradatsiya jarayonlaridan muhofaza qilish va ularni oldini olishga qaratilgan tadbirlarni ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Dunyoda sho‘rlangan tuproqlarning hozirgi holatini, yuzaga kelayotgan sho‘rlanish jarayonlari va uni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, sho‘rlanish jarayonlarini oldini olish, muhofaza qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, tuproq xossa-xususiyatlariga sho‘rlanish jarayonlarining ta‘sirini aniqlash, tuproq mikrobiologik faolligining ichki va tashqi muhit omillari bilan o‘zaro aloqadorligini tahlil qilish, tuproq tizimlarini turli salbiy omillarga chidamlilik darajasini obyektiv va ishonchli baholashning biodiagnostika uslublarini ishlab chiqishga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda yerlar sho‘rlanish, cho‘llanish va qurg‘oqchilik kabi degradatsiya jarayonlarining oldini olish va unga qarshi kurashish, salbiy oqibatlarini bartaraf etish, degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklash, ushbu yo‘nalishdagi ilg‘or texnologiyalarni keng joriy etish kabi vazifalarni amalga oshirish belgilab berilgan. Xususan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida «...yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o‘zlashtirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish» muhim strategik vazifalar sifatida belgilab berilgan. Shu bois, respublikamizda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda yer resurslardan oqilona va samarali foydalanish oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 277-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 2-fevraldagi “Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risida”gi² O‘RQ-903-sonli Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-71-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga

¹ <https://www.fao.org/global-soil-partnership>

² <https://www.lex.uz/pdfs/6787881>

tegishli boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, suv muammolari, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Surxon-Sherobod vohasi tuproqlari, ularning ekologik-meliorativ holati turli yillarda S.S.Neustruyev, S.A.Azimboyev, G'.T.Parpiyev, N.F.Bespalov, N.A.Butskov, B.V.Gorbunov, N.V.Kimberg, A.Z.Zaychikov, S.V.Kamayev, A.A.Xudoyberdiyev, T.T.Berdiyev, T.K.Ortikovlar va boshqalar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, Respublikamizda biologik faollikning tuproq unumdorligidagi ahamiyati o'rganish bo'yicha turli yillarda keng qamrovli tadqiqot ishlari X.T.Riskiyeva, L.A.Gafurova, M.M.Mamiyev, D.M.Zuparov, X.N.Karimov, M.Mirsadikov, Z.A.Jabbarov, G.M.Nabiyeva, D.A.Qodirova, M.E.Saidova, D.Y.Mahkamova, O.R.Umarov va boshqalar tomonidan olib borilgan. Lekin, o'rganilgan hudud tuproqlarining hozirgi holati va mikrobiologik indikatsiyasi yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Tuproqlarning degradatsiyasi, ularning unumdorligi, muhofazasi va yaxshilashning innovatsion texnologiyalari" mavzusiga (2021-2025 yy) bog'liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Termiz tumanida tarqalgan tuproqlarning kimyoviy, agrokimyoviy, agrofizikaviy va mikrobiologik xususiyatlarini funksional tizim sifatida kompleks aniqlash asosida hozirgi holatini baholash va mikrobiologik indikatsiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Termiz tumanida tarqalgan cho'l-qumli, cho'l-o'tloqi va o'tloqi-allyuvial tuproqlarning agrofizikaviy va agrokimyoviy xossalari sho'rlanish jarayonlarining ta'sirini aniqlash;

turli darajada sho'rlangan sug'oriladigan cho'l-qumli, cho'l-o'tloqi va o'tloqi-allyuvial tuproqlarda mikroorganizm faolligini sho'rlanish tipi ximizmi bilan korrelyatsion bog'liqligini aniqlash va indikatsion tashxisini ishlab chiqish;

tadqiqot obyektida tarqalgan tuproq tiplariga bog'liq holda mikroorganizm guruhlarini miqdoriy va sifat tarkibining o'zgarishini aniqlash;

mikroorganizmlar asosiy taksonomik guruhlarini miqdorining sho'rlanish jarayonlari ta'sirida o'zgarishi va mavsumiy dinamikasini o'rganish;

hududda tarqalgan turli darajada sho'rlangan tuproqlardagi mikroorganizm guruhlarini (bakteriya, zamburug', aktinomitset) ning tur tarkibini aniqlash;

geoaxborot tizimlari asosida tuproq unumdorligining asosiy xossalari va mikroorganizmlarni miqdoriy tarqalishini ifodalovchi kartogrammalar tuzish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Termiz tumanida tarqalgan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial, cho'l-o'tloqi va cho'l - qumli tuproqlar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti tuproqning genetik guruhlari, sho‘rlanish jarayonlari, tuproqning xossa-xususiyatlari, mikroorganizmlar guruhlari, miqdori, tur tarkibi, turli mavzuli kartogrammalar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar umumqabul qilingan standart uslublar: profil-genetik, qiyosiy-geografik va kimyoviy-analitik usullarda, laboratoriya tahlillari «Руководство по химическому анализу почв», «Методы почвенной микробиологии и биохимии», «Большой практикум по микробиологии», «Биологическая диагностика индикация почв: методология и методы исследований» qo‘llanmalari bo‘yicha bajarilib, turli mavzuli kartogrammalar yaratishda ArcGIS dasturining IDW interpolyasiya usulidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Surxon-Sherobod vohasi cho‘l mintaqasi sharoitida olib borilgan mikrobiologik tadqiqotlar asosida har bir tuproq tipi va tipchalarining unumdorlik holatini kompleks baholash imkonini beruvchi indikator mikroblar aniqlangan;

tuproqlarning fitosanitar holatini yaxshilash va tuproq bioremediatsiyasida foydalanish mumkin bo‘lgan istiqbolli introdutsent mikroorganizmlar - Bacillus hamda Pseudomonas turkumlariga mansub bakteriyalar (fitopatogen organizmlar sonini kamaytiradigan) aniqlangan;

Termiz tumani hududida sug‘orma dehqonchilik tufayli cho‘l-qumli > cho‘l-o‘tloqi > o‘tloqi-allyuvial tuproqlar tomon agregatsiya va gumifikatsiya jarayoni faollashib, ustki qatlamlarida il va mayda chang zarrachalar hamda gumus miqdorining ortishi hisobiga unumdor agroirrigatsion (0-55; 0-57 va 0-85 sm lik) qatlamlar shakllanganligi asoslangan;

Surxon-Sherobod vohasi cho‘l mintaqasidagi turli darajada sho‘rlangan sug‘oriladigan cho‘l-qumli, cho‘l-o‘tloqi va o‘tloqi-allyuvial tuproq ayirmalarida mikroorganizm faolligiga sulfatli va xlorid-sulfatli sho‘rlanish tipi ximizmi bilan korrelyatsion bog‘liqligi ilmiy asoslangan va indikatsion tashxisi ishlab chiqilgan;

tuproqlarda mikroorganizm guruhlarning tarqalishi, miqdori va tur tarkibining turli darajada sho‘rlanish jarayonlari ta’sirida o‘zgarishi ilmiy asoslangan;

tuproqlarda kechayotgan biologik jarayonlarning yo‘nalishini tavsiflash imkonini beruvchi asosiy guruh mikroorganizmlari bilan tuproqlarning ta’minlanganlik darajasi aniqlangan;

mikrobiologik tadqiqotlar majmuasiga asoslangan holda tuproqlarni ekologik-mikrobiologik monitoring qilish tuproqlarning agroekologik holatini erta tashxislash va unumdorligini baholashda biomonitoring mezonlari sifatida foydalanish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Termiz tumani “Namuna” massivi sug‘oriladigan tuproqlarining 1:10000 masshtabli sho‘rlanish kartogrammasi tuzilgan;

geoaxborot texnologiyalarini qo‘llagan holda tadqiqot hududi tuproqlarining unumdorlik ko‘rsatkichlarini (gumus, fosfor, kaliy) aks ettiruvchi kartogrammalar tuzilgan;

o'rganilgan tuproqlarda mikroorganizmlar asosiy guruhleri (bakteriyalar, zamburug'lar, aktinimitsetlar) miqdoriy tarqalishini ifodalovchi raqamli kartogrammalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalarning ishonchliligi qo'yilgan vazifalar kompleks yondashuv asosida yechilganligi, nazariy va amaliy natijalarni bir-biriga mosligi, tadqiqotlar tuproqshunoslik va tuproq biologiyasi sohasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda bajarilganligi, ularning matematik-statistik tahlil qilinganligi, tadqiqotlarda dunyo miqyosida keng qo'llanilayotgan zamonaviy geoaxborot texnologiyalaridan foydalanilganligi, tadqiqot natijalarining yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi va amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tuproq mikroorganizmlari turli guruhlarining miqdori va sifat tarkibi tuproqda oziqa moddalarini to'planishi, dinamikasi, o'simlik qoldiqlarini parchalanishi, gumus moddalarini sintezi va mineralizatsiyasi kabi qator biologik jarayonlarning yo'nalishini tavsiflash, tuproq hosil bo'lishi va unumdorligida biologik omillarni ahamiyatini belgilashga oid indikatsion masalalarni hal etishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati zamonaviy geoaxborot texnologiyalari asosida yaratilgan turli mavzuli kartografik asoslar tuproqlar holatini monitoring qilish, gumus, oziqa elementlari bilan ta'minlanganlik va mikrobiologik faolligi darajasiga ko'ra o'g'itlardan samarali foydalanishda, tuproqlarning mikrobiologik indikatsiyasi esa turli salbiy omillarga tuproq tizimlarining chidamlilik darajasini baholash, tuproqning barqaror unumdorligini ta'minlashda biologik jarayonlarni tartibga solish va maqbullashtirishga yo'naltirilgan yerlar degradatsiyasiga qarshi kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Surxondaryo viloyati Termiz tumani hududida tarqalgan cho'l-qumli, cho'l-o'tloqi va o'tloqi-allyuvial tuproqlarning agrofizikaviy, agrokimyoviy xossalari hamda ularning mikrobiologik indikatsiyasi bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

Termiz tumani "Namuna" massivi sug'oriladigan tuproqlarining 1:10000 masshtabda tuzilgan sho'rlanish kartogrammasi massivning 1891 ga yer maydonlarida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 05/05-04-588-son ma'lumotnomasi). Natijada, massivdagi sug'oriladigan tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash, unumdorligini saqlash va oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash imkonini bergan;

geoaxborot texnologiyalari asosida sug'oriladigan tuproqlarning oziqa elementlari (harakatchan fosfor va almashinuvchan kaliy) bilan ta'minlanganligini ifodalovchi 1:10000 masshtabdagi raqamli xaritalari Termiz tumani "Namuna" massivning 1891 gektar yer maydonlarida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 05/05-04-588-son ma'lumotnomasi). Natijada, massivdagi fermer xo'jaliklari sug'oriladigan yer maydonlariga xo'jalik tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda mineral

o'g'itlarni maqbul meyorlarini belgilash, fosforli va kaliyli o'g'itlarni tabaqalashtirib qo'llash imkonini bergan;

sug'oriladigan tuproqlarning gumus bilan ta'minlanganligini aks ettiruvchi raqamli xaritalar ishlab chiqilgan va Termiz tumani "Namuna" massivida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 05/05-04-588-son ma'lumotnomasi). Natijada, global iqlim o'zgarishi sharoitida tuproqda sodir bo'layotgan degumifikatsiya jarayonlarini baholash va tuproqni organik modda bilan boyitishga qaratilgan agrotexnik tadbirlarni ishlab chiqish imkonini bergan;

tuproqlarning mikrobiologik holatini (ammonifikator, zamburug', aktinomitset) tavsiflovchi raqamli xaritalar yaratilgan va Termiz tumani "Namuna" massivida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 05/05-04-588-son ma'lumotnomasi). Natijada, tuproqlarni "sog'lomligi" va ekologik holatiga mikrofloraning ta'sirini baholash hamda unumdorligini oshirishning biologik yo'llarini ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari har yili Toshkent davlat agrar universitetining maxsus komissiyasi tomonidan aprobatsiyadan o'tkazilib, ijobiy baholangan. Hisobotlar universitet va fakultetning Ilmiy-innovatsion kengashlarida muhokama qilingan. Mazkur tadqiqot natijalari jami 6 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish e'lon qilingan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan 1 ta xorijiy jurnalda, 3 ta respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 5 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 116 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotni ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi to'g'risidagi hamda nashr etilgan ishlar va dissertatsiyani tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Surxon-sherobod vohasi tuproqlarining o'rganilganlik holati va mikrobiologik indikatsiyasiga oid ilmiy izlanishlar (Adabiyotlar sharhi)**» deb nomlangan birinchi bobi ikki qismga bo'lingan bo'lib, «Turli darajada sho'rlangan tuproqlar unumdorligiga tashqi omillar ta'siri» deb nomlangan birinchi qismida sho'rlanish jarayonlarining tuproqlarning unumdorlik holati va xossa-xususiyatlariga ta'siri, ularning meliorativ holatini yaxshilashga

doir tadqiqotlar tahlili keltirilgan. «Tuproqlar mikrobiologik indikatsiyasi va ularning tuproq unumdorligidagi ahamiyati» deb nomlangan ikkinchi qismida respublikamiz va chet davlatlarda tuproqlarning biologik faolligini o'rganilganlik holati, degradatsiyaga uchragan tuproqlarning holatini baholashda bioindikatsiya va biodiagnostika uslublaridan foydalanish to'g'risidagi izlanish natijalari keng yoritilgan.

Adabiyotlar sharhining yakunida degradatsiyaga uchragan tuproqlarning xossa-xususiyatlari bilan bir qatorda biologik faolligini ham kompleks o'rganish va ularning kartogrammalarini yaratish asosida tuproq unumdorlik holatini monitoring qilish, biologik potensialini baholash muhim ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida xulosalar qilingan.

Dissertatsiyaning «**Tuproq hosil bo'lish jarayonlarining tabiiy-iqlim sharoitlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar o'tkazilgan joyning geografik joylashuvi, relyefi, geologik, geomorfologik va gidrogeologik sharoitlari, iqlimi va o'simlik dunyosi, tuproq qoplami to'g'risida, shuningdek ushbu tabiiy sharoitlarning tuproq shakllanishi va degradatsiya jarayonlarini yuzaga kelishidagi ahamiyati hamda tadqiqotlar davomida qo'llanilgan uslublar to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Sug'oriladgan tuproqlarning agrofizikaviy va agrokimyoviy hamda meliorativ holati**» deb nomlangan uchinchi bobida hudud tuproqlarining xossa-xususiyatlariga sho'rlanish jarayonlarining ta'sirini o'rganish bo'yicha olingan tadqiqot natijalari keltirilgan.


Surxon-Sherobod vohasi tuproqlari morfologik tuzilishida gumusli qatlam qalinligi, agroirrigatsion qatlamga egaligi, qolaversa namlanish rejimining o'ta o'zgaruvchanligi va sho'rlanish jarayoni tuproq profili tuzilishining xilma-xilligida o'z aksini topadi. Tadqiqot obyekti cho'l mintaqasining tuproq hosil bo'lish jarayonlarining yo'nalishi va sharoitining o'zgarishiga bog'liq holda tadqiq etilgan tuproqlarning mexanik tarkibi bo'yicha o'ziga xos xarakterli belgilarga ega ekanligi kuzatildi. Ushbu tuproqlar uchun mayda qum zarrachalari, ayrim qatlamlarida esa o'rta va yirik qum zarrachalarining ko'pligi xosdir. Profil bo'ylab tuproqning mexanik tarkibi asta-sekin og'ir qumoqdan o'rta va engil qumoqgacha o'zgaradi. O'rganilgan hududda tarqalgan cho'l-qumli, cho'l-o'tloqi, o'tloqi-allyuvial tuproqlari uchun ularning mexanik tarkibida yirik chang (0,05-0,01 mm) va mayda qum zarrachalarining (0,1-0,05 mm) ko'pligi xarakterlidir. Mexanik tarkib tuproqlardagi biologik jarayonlarga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Tuproqlarning mexanik tarkibida il va mayda chang zarrachalari miqdorining kamayishi biologik faollikni ham susayishiga olib keladi.

Tadqiqotlarimiz davomida o'rganilgan tuproqlarning solishtirma og'irligi tuproqlarning genezisi bilan bevosita bog'liqligi kuzatildi, bunda tuproq profili bo'ylab sug'oriladigan cho'l-qumli tuproqlarda 2,63 dan 2,70 g/sm³ gacha, cho'l-o'tloqi tuproqlarda 2,65 g/sm³ dan 2,71 g/sm³ gacha, sug'oriladigan o'tloqi - allyuvial tuproqlarda esa 2,60 g/sm³ dan 2,69 g/sm³ gacha o'zgarib boradi. O'rganilgan hudud tuproqlarining hajm og'irligi ko'rsatkichlari ham turlicha bo'lib, u tuproqlarning kelib chiqishi va sho'rlanish holatlariga bog'liqdir. Cho'l-qumli tuproqlarda 1,37-1,57 g/sm³, cho'l-o'tloqi tuproqlarda 1,45-1,57 g/sm³,

sugʻoriladigan oʻtloqi - allyuvial tuproqlarda esa 1,42-1,59 g/sm³ gacha oʻzgarib boradi.

Sugʻoriladigan choʻl-qumli tuproqlarda umumiy gʻovaklik 42,9-47,9% ni tashkil etgan boʻlsa, sugʻoriladigan choʻl-oʻtloqi tuproqlarda 41,0-46,4%, sugʻoriladigan oʻtloqi-allyuvial tuproqlarda esa 38,2-45,4% ni tashkil etadi. Olingan natijalarga koʻra, yuqori gʻovaklik asosan, ustki gumusli qatlamlarga toʻgʻri keladi, pastki zich qatlamlarga borib esa tuproq gʻovakligi sezilarli darajada kamayadi.

Oʻrganilgan tuproqlar orasida oʻtloqi-allyuvial tuproqlar boshqalariga nisbatan gumus miqdori yuqoriligi bilan ajralib turadi. Sugʻoriladigan oʻtloqi-allyuvial tuproqlarning yuqori qatlamida gumus miqdori 0,96 dan 1,24% gacha, haydov osti qatlamida 0,54 dan 0,89% gacha boʻlib, chuqurlik boʻylab tabiiy ravishda kamayib boradi. Sugʻoriladigan oʻtloqi-choʻl tuproqlardagumus miqdori ustki qatlamlarda 0,63% tashkil etsa, sugʻoriladigan choʻl-qumli tuproqlar gumus miqdorining kamligi bilan ajralib turadi. Uning miqdori yuqori qatlamda 0,30% ni, pastki qatlamda 0,15% gacha tashkil etadi. Choʻl-qumli tuproqlarda gumus



1-rasm. Termiz tumani “Namuna” massivi tuproqlarining gumus bilan taʼminlanganlik darajasini tavsiflovchi kartogramma

miqdorining kamligi, birinchi navbatda, oʻsimlik qoplaminig siyrakligi bilan bogʻliq boʻlib, bu oʻz navbatida tuproq mikroorganizmlari faoliyatining pasayishiga olib keladi. Olib borilgan dala tadqiqotlari va laboratoriya tahlillari asosida hudud tuproqlarining gumus, harakatchan fosfor va almashinuvchan kaliy bilan taʼminlanganlik darajasini aks ettiruvchi mavzuli va shoʻrlanganlik kartogrammalari yaratildi (1-rasm).

Yaratilgan kartogrammadan koʻrinib turibdiki, gumus bilan hudud tuproqlari notekis taʼminlangan boʻlib, asosan, juda kam, kam va oʻrtacha, kamdan-kam hollarda yuqori taʼminlangan tuproqlarga mansubligi kuzatildi.

Tadqiq etilgan tuproqlar gumusga kambag'al bo'lgani sababli, ularda umumiy azot, fosfor va kaliy miqdori ham pastligi kuzatiladi. Masalan, o'tloqi-allyuvial tuproqlarning yuqori qatlamida umumiy azot 0,060-0,084%, fosfor 0,320-0,410%, kaliy 1,32-1,41% ni tashkil etadi. Pastki qatlamda ularning miqdori gumus miqdori, mexanik tarkibi va sho'rlanish darajasiga qarab: azot - 0,030 % gacha, fosfor - 0,230% gacha, kaliy - 0,96 % gacha kamayadi. O'rganilgan tuproqlarda nitrat shaklidagi azot miqdori pastligi, ya'ni o'tloqi-allyuvial tuproqlarda mineral azot miqdori profil bo'yicha 7,75-27,0 mg/kg, cho'l-o'tloqi tuproqlarda 5,25-14,5 mg/kg va cho'l-qumli tuproqlarda 3,0-8,5 mg/kg oralig'ida o'zgarib turishi kuzatiladi. Bu, bir tomondan, degradatsiya jarayonlari bilan, ikkinchi tomondan esa, elyuvial-kseromorf sharoitda organik moddalarning tez minerallashuvi bilan bog'liq. O'rganilgan tuproqlarda harakatchan shakldagi fosfor miqdori profil bo'yicha keng oraliqda o'zgaradi va ustki qatlamda 25,0-40,0 ni tashkil etib, uning quyi chegarasi 8,5-12,5 mg/kg gacha etadi. Kaliyning harakatchan shakllarida bilan ham xuddi shunday holat kuzatiladi. Almashinuvchi kaliy miqdori ham o'rganilgan tuproqlarning genezisiga bog'liq holda o'zgarib, tuproq profili bo'yicha 69,6-278,4 mg/kg oralig'ida tebranadi.

Cho'l mintaqasi sho'rlangan tuproqlarining pH qiymatini aniqlash natijalari shuni ko'rsatadiki, o'rganilgan tuproqlar muhitinig reaksiyasi, asosan, kuchsiz ishqoriy bo'lib, ularning pH qiymati 7,51-7,70 oralig'ida o'zgarib turadi.

Termiz tumani "Namuna" massivida olingan tuproq ayirmalari orasida sho'rlanmagan tuproqlardan tortib, kuchsiz, o'rtacha va kuchli sho'rlanish darajasiga mansub bo'lgan tuproqlar qayd etildi, tuproqlarda uchraydigan tuzlar tarkibidagi sulfat va xlor ionlarining nisbatiga bog'liq ravishda sho'rlanish tipi, asosan, sulfatli va xlorid-sulfatli ekanligi kuzatildi. Tadqiqot obyektida tarqalgan tuproqlarda o'tkazilgan suvli so'rim tahlili natijalariga ko'ra, quruq qoldiq miqdori tuproq profili bo'ylab cho'l-qumli tuproqlarda 0,655-2,845%, cho'l-o'tloqi tuproqlarda 0,297-1,347%, o'tloqi-allyuvial tuproqlarda esa 0,215-2,675% atrofida tebranib turishi kuzatildi va ushbu tuproqlar sho'rlanmagan, kuchsiz, o'rtacha va kuchli sho'rlangan tuproqlar guruhlariga mansubligi bilan xarakterlanadi. O'rganilgan tuproqlar tarkibidagi sulfat ioni cho'l-qumli tuproqlarda 4,45-26,10 mg/ekv, xlor ioni esa 0,20-1,59 mg/ekv ni tashkil etib, sulfatli sho'rlanish tipiga mansubligi bilan tavsiflanadi. O'rganilgan cho'l-o'tloqi tuproqlarda sulfat ioni 0,96-13,53 mg/ekv ni tashkil etib, xlorid-sulfatli sho'rlanish tipiga mansubdir. Sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlari tarkibida ham sulfat ionlari ustunlik qilishi kuzatildi va ular tuproq profili bo'ylab 2,06-15,94 mg/ekv oralig'ida tebranib turadi, xlor ionlari esa 0,28-0,48 mg/ekv oralig'ida o'zgaradi.

Tuzlarning sifat tarkibi tahlil natijalariga ko'ra, o'rganilgan tuproqlar, asosan xlorid-sulfatli, kam holatlarda sulfatli sho'rlanish tiplaridan iborat bo'lib, tuzlarning sifat tarkibida Na_2SO_4 va CaSO_4 tuzlari yetakchi o'rinlarni egallaydi, keyingi o'rinda $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$ turadi. Xlorid tuzlari asosan suvda oson eruvchi MgCl_2 tuzidan iborat bo'lib, NaCl tuzi juda kam miqdorda uchraydi. Tuzlar tarkibida $\text{Mg}(\text{HCO}_3)_2$, CaCl_2 tuzlari umuman uchramagan bo'lsa, Na_2CO_3 tuzi juda kam miqdorda ayrim tuproq qatlamlarida uchradi.

Dissertasiyaning «Termiz tumani turli darajada sho'rlangan sug'oriladigan tuproqlarning mikrobiologik faolligi va unga turli omillarni ta'siri» deb nomlangan to'rtinchi bobida tuproq unumdorligi va o'simliklarning oziqlanishida muhim rol o'ynaydigan mikroorganizmlarni turli taksonomik guruhlarining tuproq tiplari, sho'rlanish jarayonlari ta'sirida va yil mavsumlari bo'yicha miqdoriy o'zgarishiga oid tadqiqot natijalari keltirilgan.

Mikroorganizmlar va mikrobiologik jarayonlar tuproq hosil bo'lishidan tortib uning unumdorligini shakllanishidagi o'rni beqiyos hisoblanadi. Tuproqda kechadigan biologik jarayonlarni va ular bilan bog'liq bo'lgan mikroflorani o'rganish tuproq hosil bo'lishi va unumdorligini yaxshilash qonuniyatlarini o'rganishning asosiy bo'g'inidir. Tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, o'g'itlardan samarali foydalanish, turli agrotexnik tadbirlarni qo'llashda tuproqda kechayotgan mikrobiologik jarayonlarning turli jihatlarini o'rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shu bois, muayyan fizik-kimyoviy xossalarga ega bo'lgan har bir tuproq turida mikroorganizmlarning ma'lum bir miqdori va alohida guruhlarining

1-jadval

**Termiz tumani tuproqlarida mikroorganizm guruhlarining miqdori
(1g tuproqda KHQB hisobida, bahor)**

Kesma raqami	Chuqurlik, sm	Ammonifikatorlar	Spora hosil qiluvchi bakteriyalar	Oligonit-rofillar	Azotfik-satorlar	Fosfor parchalovchi bakteriyalar	Zamburug'lar	Aktinomitsetlar
Sug'oriladigan cho'l-qumli tuproqlar								
1	0-30	$3,0 \times 10^6$	47×10^3	$3,7 \times 10^4$	1×10^2	Ed.(birlikda)	8×10^3	$8,5 \times 10^5$
	30-59	$2,4 \times 10^6$	35×10^3	$7,2 \times 10^4$	Ed.(birlikda)	uchramadi	6×10^3	$4,8 \times 10^4$
33	0-28	$1,9 \times 10^6$	24×10^3	$1,2 \times 10^4$	Ed.(birlikda)	Ed.(birlikda)	5×10^3	$2,5 \times 10^5$
	28-55	$1,5 \times 10^6$	12×10^3	$1,5 \times 10^3$	Ed.(birlikda)	uchramadi	4×10^3	$4,8 \times 10^4$
8	0-29	$1,8 \times 10^6$	20×10^3	$4,8 \times 10^3$	Ed.(birlikda)	uchramadi	4×10^3	$2,5 \times 10^5$
	29-58	$1,5 \times 10^6$	16×10^3	$2,4 \times 10^3$	uchramadi	uchramadi	3×10^3	$1,1 \times 10^4$
Sug'oriladigan cho'l-o'tloqi tuproqlar								
19	0-30	$6,2 \times 10^7$	57×10^4	$4,9 \times 10^5$	6×10^3	3×10^2	11×10^3	$3,3 \times 10^6$
	30-49	$3,3 \times 10^7$	45×10^4	$1,5 \times 10^5$	uchramadi	uchramadi	9×10^3	$2,7 \times 10^6$
11	0-28	$2,8 \times 10^6$	36×10^3	$2,3 \times 10^4$	Ed.(birlikda)	1×10^3	8×10^3	$2,3 \times 10^5$
	28-52	$1,6 \times 10^6$	23×10^3	$1,1 \times 10^3$	uchramadi	uchramadi	4×10^3	$1,8 \times 10^5$
Sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlar								
43	0-30	$7,3 \times 10^7$	75×10^4	$7,5 \times 10^5$	8×10^3	3×10^2	17×10^3	$3,7 \times 10^7$
	30-56	$3,9 \times 10^6$	52×10^4	$3,5 \times 10^4$	3×10^2	uchramadi	12×10^3	$4,8 \times 10^6$
29	0-33	$4,8 \times 10^6$	48×10^4	$3,0 \times 10^5$	4×10^2	2×10^3	15×10^3	$2,7 \times 10^6$
	33-61	$1,8 \times 10^6$	44×10^3	$1,5 \times 10^5$	uchramadi	uchramadi	11×10^3	$1,8 \times 10^6$
20	0-35	$3,3 \times 10^6$	28×10^3	$4,9 \times 10^4$	Ed.(birlikda)	1×10^2	12×10^3	$1,7 \times 10^6$
	35-64	$1,6 \times 10^6$	19×10^3	$1,9 \times 10^4$	uchramadi	uchramadi	7×10^3	$1,2 \times 10^6$

rivojlanishi hamda har bir tuproq turlari uchun xarakterli bo'lgan mikroorganizm guruhlari tarkibini va ular bilan bog'liq bo'lgan mikrobiologik jarayonlarning borish yo'nalishini aniqlash maqsadida Termiz tumanida tarqalgan turli darajada sho'rlangan cho'l-qumli, cho'l-o'tloqi va o'tloqi-allyuvial tuproqlarda mikrobiologik tadqiqotlar olib borildi (1-jadval).

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, o'rganilgan tuproqlarning turli darajada sho'rlanganligi, gumus va oziqa elementlari bilan kam ta'minlanganligi, shuningdek yuqori zichlashganligi sababli ushbu tuproqlarning profili bo'ylab

mikroorganizmlar sust rivojlanganligi kuzatildi. Ayniqsa, azotfiksatorlar va fosfor parchalovchi baktiriyalar tuproqlarning hattoki ustki qatlamlarida ham juda kam miqdorda bo'lib, quyi qatlamlarida esa umuman uchramaganligi kuzatildi.

Ma'lumki, tuproq unumdorligini oshishida va tuproq hosil bo'lish jarayonlarida ishtirok etuvchi mikroorganizmlarning eng katta guruhini ammonifikatorlar taskil etadi. Bunda, ayniqsa, o'simliklarning o'sishi va tuproq unumdorligini oshishi uchun zarur bo'lgan oziqa moddalarining hosil bo'lish jarayonlari muhim hisoblanadi. Tadqiqot olib borilgan barcha tuproq turlarida ham aniqlangan mikroorganizm guruhlari orasida ammonifikatorlar ulushi ustunlik qildi. Ammonifikatorlar miqdori sugoriladigan cho'l-qumli tuproqlarda sho'rlanish darajasiga bog'liq holda 1g tuproqda qatlamlar bo'ylab $1,3 \times 10^6$ - $3,0 \times 10^6$ KHQB hisobida bo'ldi. Sug'oriladigan cho'l-o'tloqi tuproqlarda ammonifikatorlar miqdori birmuncha oshishi kuzatildi va bu ko'rsatkichlar 1g tuproqda $1,4 \times 10^5$ - $6,2 \times 10^7$ KHQB oralig'ida o'zgarib turadi. Ammonifikatorlarning eng yuqori miqdori sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarga to'g'ri kelib, qatlamlar bo'ylab 1g tuproqda $1,5 \times 10^5$ - $7,3 \times 10^7$ KHQB hisobida bo'ldi. Bu esa ushbu tuproqlarda azotli organik moddalarning parchalanishi faol kechayotganligidan dalolat beradi.

Bizga ma'lumki, tuproqda oziqa moddalarining yetishmasligi yoki yo'qligi, kislotaliligi yoki ishqoriyligining ortib ketishi, yuqori yoki past harorat, qurg'oqchilik va boshqa noqulay sharoitlar yuzaga kelganda, bakteriyalarning aksariyati spora hosil qilish qobiliyatiga ega hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, sug'oriladigan cho'l-qumli tuproqlarning ustki qatlamlarida spora hosil qilivchi bakteriyalar soni 1g tuproqda 11×10^3 - 47×10^3 KHQB hisobida bo'lsa, bu ko'rsatkichlar pastki qarlamlar tomon 1g tuproqda 5×10^3 - 35×10^3 KHQB hujayragacha kamayishi kuzatildi. Sug'oriladigan cho'l-o'tloqi tuproqlarda sho'rlanish darajasi va qatlamlar bo'yicha spora hosil qilivchi bakteriyalar soni 1g tuproqda 15×10^3 - 57×10^4 KHQB hujayra oralig'ida o'zgarib turdi. Sug'oriladigan o'tloqi-alyuvial tuproqlarda esa bu ko'rsatkichlar 11×10^3 - 75×10^4 KHQB hisobida bo'ldi.

Tadqiqotlar davomida aniqlangan mikroorganizm taksonomik guruhlaridan biri – bu oligonitrofillar hisoblanadi. Oligonitrofillar tuproqning azotsiz organik moddalarini minerallashtirishda ishtirok etadi. Oligonitrofillarning azotsiz yoki azot miqdori juda kam bo'lgan sharoitlarda ham rivojlanish qobiliyati ularga boshqa mikroorganizmlar uchun noqulay bo'lgan sharoitlarda ham yashash imkoniyatini beradi va shu tufayli tuproqdagi biologik jarayonlarda faol ishtirok etishiga yo'l ochadi.

Oligonitrofillar miqdori o'rganilgan tuproqlarda ularning sho'rlanish darajasi, tuproq tiplari va boshqa omillarga bog'liq ravishda 1g tuproqda $1,0 \times 10^3$ - $7,5 \times 10^5$ KHQB hisobida o'zgarib turdi. Oligonitrofillarning eng kam miqdori cho'l-qumli tuproqlarda kuzatilsa, yuqori miqdori o'tloqi-allyuvial tuproqlarga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, atmosferada azotning ulkan zahiralari mavjud bo'lib, biroq bu zahiradan na o'simliklar, na hayvonlar foydalana olmaydi. Faqatgina azotfiksatorlar hayot-faoliyati tufayligina atmosfera azoti tuproqqa fiksatsiya qilinadi va bu o'simliklar oziqlanishida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bois, tadqiqotlar davomida mazkur mikroorganizm guruhlarining miqdoriy

o'zgarish ham o'rganildi. O'rganilgan sug'oriladigan cho'l-qumli va cho'l-o'tloqi tuproqlarning sho'rlanmagan va kuzsiz sho'rlangan tuproqlarning faqatgina ustki qatlamlarida kam miqdorda uchradi xolos. Pastki qatlamlarda va kuchli sho'rlangan tuproqlarda umuman uchramadi.

Fosfor parchalovchi mikroorganizmlarning miqdoriy o'zgarishida ham yuqoridagi qonuniyat kuzatildi. Sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning turli darajada sho'rlangan tuproqlarining ustki qatlamlarida juda kam miqdorda uchradi. Pastki qatlamlarda umuman uchramadi.

Zamburug'lar mikroorganizmlarning ko'p sonli va rang-barang guruhlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga tuproqdagi turli organik birikmalarning biokimyoviy transformatsiyasida ishtirok etish bilan bog'liq holda ularda uglevodlar va oqsillarning parchalanishini tezlashtirish xususiyatiga ega.

2-jadval

Termiz tumani sug'oriladigan tuproqlaridagi sulfatli va xlorid-sulfatli tip sho'rlanish ximizmining sho'rlanish darajalari bo'yicha mikroorganizm guruhlarining faolligi
INDIKATSION TASHXISI


№	Mikroorganizmlar guruhlari	Sulfatli tip sho'rlanish ximizmidagi (sho'rlanish darajalari bo'yicha)					Xlorid-sulfatli tip sho'rlanish ximizmidagi (sho'rlanish darajalari bo'yicha)				
		sho'rlanmagan	kuzsiz	o'rtacha	kuchli	juda kuchli *	sho'rlanmagan	kuzsiz	o'rtacha	kuchli	juda kuchli *
Bakteriyalar											
1	<i>Bacillus subtilis</i>	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
2	<i>Bacillus anthracis</i>	+	+	+	-	-	+	+	+	-	-
3	<i>Bacillus polymyxa</i>	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
4	<i>Bacillus megaterium</i>	+	+	+	-	-	+	+	+	-	-
5	<i>Bacillus pumilus</i>	+	+	+	-	-	+	+	+	-	-
6	<i>Staphylococcus hemolyticus</i>	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
7	<i>Poenibacillus polymyxa</i>	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
8	<i>Pseudomonas mendocina</i>	+	+	+	+	+	+	+	+	-	-
9	<i>Pseudomonas asplenii</i>	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
10	<i>Pseudomonas shetzeri</i>	+	+	+	+	+	+	+	+	-	-
Zamburug'lar											
1	<i>Aspergillus</i>	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
2	<i>Mucor</i>	+	+	+	-	-	+	+	+	-	-
3	<i>Penicillium</i>	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
4	<i>Fusarium</i>	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
5	<i>Alternaria</i>	+	+	+	-	-	+	+	+	+	+
6	<i>Stachybotrys</i>	+	+	+	-	-	+	+	+	-	-
7	<i>Stemphylium</i>	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
8	<i>Trichoderma</i>	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
9	<i>Cladosporium</i>	+	+	+	-	-	+	+	+	-	-
10	<i>Candida kefyr</i>	+	+	+	+	+	+	+	+	-	-
Aktinomisetlar											
1	<i>Nocardia asteroides</i>	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
2	<i>Nocardia brasiliensis</i>	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
3	<i>Streptomyces</i>	+	+	+	-	-	+	+	+	+	+
4	<i>Streptomyces griseus</i>	+	+	+	+	+	+	+	+	-	-

Eslatma: * - O'rganilgan barcha tuproq tiplarida juda kuchli darajada sho'rlangan (sho'rxok) ayrimlari mavjud emas.

O'rganilgan tuproqlarda zamburug'lar va aktinomisetlarning soni tuproqning yuqori qatlamlarida ustunlik qilsa, pastki qatlamlarga tomon tuproqda organik moddalar miqdoriga bog'liq ravishda kamayib borishi kuzatildi.

